



24.11.2022 даги

Акбар Шахзод Курилиш МЧЖ ва Шофирикон туман тиббиёт бирлашма ўртасида 52000000,00 сўм умумий
суммага тузилган 22/24 - сонли шартномага

ТЎЛОВЛАР ЖАДВАЛИ*

Боб
Шахсий ғазна хисобварак

054
100022860062587073101054003

сўмда

2022 й. ойлар номи.	Харажатлар тури** (бюджет таснифининг тегишли коди)		Жами
	4232200		
Январь			
Февраль			
Март			
Апрель			
Май			
Июнь			
Июль			
Август			
Сентябрь			
Октябрь			
Ноябрь	52 000 000,00		52 000 000,00
Декабрь			
Жами йил бўйича	52 000 000,00		52 000 000,00

Жами 52000000,00 сўм

Эллик икки миллион сўм 00 тийин

сумма сўз билан

Юкоридаги кўрсатилган суммадан 15600000,00 сўм ёки 30,00%*** шартноманинг умумий суммасидан
30 % ***2022 йил ноябр ойида тўланиши лозим.

(*) — бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан разнацилик бўлинмасига икки нусхада
такдим этилади;

(**) — бўлим, кичик бўлим ва харажат моддаси кўрсатилади;

(***) — Юкоридаги кўрсатилган суммадан ойига ____ % жорий ойнинг ____ санасигача хар ойда олдиндан тўланиши
лозим (ушбу сатр бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан коммунал хизматлар
кўрсатиш алоқа хизматлари ва конун хужжатларида назарда тутилган хар ой доимий равишда товарлар (ишлар, хизматлар)
етказиб бериш шартномалари бўйича олдиндан тўловни амалга ошириш холларида тўлдирилади).



Буюртмачи раҳбари

Буюртмачи бош бухгалтери

Фазнацилик бўлинмасининг
ходими қабул қилди

«___» 20 ___ й.

Хўжамкулов Самандар Раҳмонқулович
Ф.И.Ш.

Юсупов Юнус Исройлович
Ф.И.Ш.

Буюртмачи ходими
қабул қилди

«___» 20 ___ й.

Shofirkon shahri.

“24”Noyabr 2022 yil

“Akbar Shaxzod Qurilish” MChJ keyingi o‘rinlarda “Pudratchi” deb yuritiluvchi o‘zining nizomi ustavi, asosida ish yurituvchi raxbari **I.Rashidov** timsolida bir tomondan va Shofirkon tuman TTB keyingi o‘rinlarda “Buyurtmachi” deb yurituvchi, o‘zining nizomi ustavi asosida ish yurituvchi raxbari **S.Xo’jamqulov** timsolida ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

1.Shartnomaning predmeti.

1.1.Ushbu shartnoma buyicha “Pudratchi” “Buyurtmachi” ning buyurtmasiga va tuzilgan loyiha smeta hujjatlariga asosan Shofirkon tuman TTB ga qarashli Jilvon OSHP Binosini joriy ta’mirlash ishlarni bajarishni, “Buyurtmachi” “Pudratchi” tomonidan loyixa smeta bo‘yicha bajargan ishlarni dalolatnoma asosida qabul qilib olishni hamda to‘lovni o‘z vaqtida amalga oshirishni o‘z zimmalariga oladilar.

1.2.Ushbu shartnomaning umumiy summasi QQS bilan **52 000 000 (ellik ikki million) so‘mni** tashkil etadi.

2.Shartnoma buyicha kelishuv narxlar.

2.1.“Buyurtmachi” tomonidan taqdim qilingan hujjatlarga asosan ta’mirlash ishlarning qiymati QQS bilan **52 000 000 (ellik ikki million) so‘m** ni tashkil qiladi.

2.2. Ta’mirlash ishlarning boshlanishi «24»noyabr 2022 yil.

2.3. Ta’mirlash ishlarning tugashi vaqtisi «24»dekabr 2022 yil.

3.Ta’mirlash ishlarni boshlash , bajarish va tugatish buyicha shartnomaviy muddatlar

3.1. Ta’mirlash ishlarni bajarish muddati mazkur shartnomaning 2.3. bandida ko‘rsatilgan muddatgacha amalga oshiriladi.

3.2. Shartnomadagi 4.1 bandida kursatilgan avansni “Pudratchi” olgandan so‘ng ta’mirlash ishlarni boshlaydi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2021 yil 16 martdagи 139-sonli qaroriga asosan byudjetdan mablag‘ oluvchilarning byudjet mablag‘lari hisobiga tuziladigan shartnomalarida, qoidaga ko‘ra, 30 foiz miqdorida oldindan haq (avans) to‘lash nazarda tutilgan.

3.3.«Buyurtmachi» tomonidan ta’mirlash ishlarni bajarish davrida «Pudratchi»ga o‘zi tomonidan xarid qilingan qurilish materiallarini taqdim qilishi mumkin.

3.4.Ta’mirlashni to‘xtab qolganligi uchun sababchi bo‘lgan tomon buning oqibatida kelib chiqadigan har qanday kamomad yoki javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi.

3.5.Ta’mirlashni tugallab foydalanishga topshirish uchun tuzilgan komissiya dalolatnomasi tasdiqlangandan sung ta’mirlash ishlari tamom bo‘lgan deb hisoblanadi.

4.To‘lov sharti va tartibi

4.1.Ushbu shartnomaning umumiy narxi QQS bilan **52 000 000 (ellik ikki million) so‘mni** tashkil etadi. «Buyurtmachi» ta’mirlash ishlarni boshlash uchun «Pudratchi»ga shartnoma narxining 30 % yoki **15 600 000 (o‘n besh million olti yuz ming)** so‘m miqdorda oldindan to‘lov (avans)ni to‘laydi va bu oldindan to‘lov 2022 yilning noyabr oyida amalga oshiriladi. «Buyurtmachi» tomonidan yakuniy 70 % yoki **36 400 000 (o‘ttiz olti million to‘rt yuz ming)** so‘m to‘lov «Pudratchi» ishlar bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim qilgandan so‘ng 10 kun ichida amalga oshiriladi.

4.2.«Buyurtmachi» to‘lovni pul o‘tkazish yuli bilan amalga oshiradi.

4.3.«Pudrat» tashkiloti tomonidan shartnomada ko‘rsatilgan summadan oshikcha bajarilgan ishlar uchun «Buyurtmachi» tomonidan to‘lovlar amalga oshirilmaydi.

5. Pudratchining huquq va majburiyatları.

5.1. Shartnoma bahosi QQS bilan **52 000 000 (ellik ikki million) so‘m** bo‘lgan ta’mirlash ishlarni shartnomaning 2.3 bandida ko‘rsatilgan muddatda bajarish va o‘z vaktida sifatli kilib topshirish.

5.2. Pudratchi maxsus ta’mirlash ishlarni bajarish uchun maxsus yollanma pudratchi tashkilotlarni jalb kilish xukukiga ega.

5.3. Har oyning 25 sanasida o‘tgan oyda bajarilgan qurilish montaj ishlari to‘g‘risidagi tegishli hujjatlarni «Buyurtmachi»ga taqdim kilishi shart.

5.4. Pudratchi shartnomada nazarda tutilgan mablag‘ doirasida ishlarni bajaradi va shunga muvofik bajarilgan ishlar to‘g‘risida dalolatnomani tuzadi.

5.5. Oyida bir marta xar oyning 5-kunidan kechiktirmay «Buyurtmachi»ga o‘tgan oyda qilingan ishlar uchun to‘lov schyoti (xisob faktura)ni takdim kiladi shuningdek xisob faktura “Buyutmachi” tomonidan tasdiqlab

berilgandan so'ng 5 (besh) ish kuni muddatda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 2 iyundagi 522-sloni qaroriga muvofiq elektron ko'rinishda EXF operatorlari orqali jo'natadi;
5.6. Pudratchi Buyurtmachidan bajarilgan xizmat uchun xakni shartnomaning 4.1bandiga asosan kelishilgan vaktda va mikdorda to'lanishini talab kilish xukukiga ega.

6. Buyurtmachining xuquq va majburiyatlar

- 6.1 "Buyurtmachi" "Pudratchi" dan ta'mirlash ishlarini o'z vaqtida xamda belgilangan standartlarga va amaldagi qonunchilikka asosan topshirishini talab kilish xukukiga ega.
6.2 "Buyurtmachi" tasdiqlangan smetasiga muvofiq byudjetda nazarda tutilgan mablag' doirasida shartnoma tuzadi va shartnoma summasiga muvofik dalolatnomani «Pudratchi» bilan birgalikda tuzadi.
6.3 «Pudratchi» tomonidan shartnomaning 5.5-bandida nazarda tutilgan muddatlarda taqdim qilingan to'lov schyoti (xisob-faktura)ni qabul qilib oladi va 10 kun ichida qilingan ishlar uchun to'lovni amalga oshiradi.
6.4. Sifatsiz xizmat kursatilganda "Buyurtmachi" xizmatni kabul kilib olishdan voz kechishi va kamchiliklarni bartaraf qilish to'g'ritsida 3 kun ichida pudratchini yozma ravishta xabardor qiladi.

7. Taraflarning javobgarligi.

- 7.1.«Pudratchi» «Buyurtmachi» tomonidan takdim kilingan loyixa smeta hujjatlariga asosan qurilishni o'z vaktida lozim darajada bajarmaganda yoki sifatsiz qilinganligi uchun xar bir kechiktirilgan kun uchun ushbu ishlar bajarilmagan kismining summasidan 0,4% mikdorida, birok bajarilmagan ishlar summasining 50 % idan ortik bulmagan mikdorda penya tulaydi. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, ishlarni bajarmaslik yoki xizmatlarni ko'rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.
7.2. Agar bajarilgan ishlar sifati bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonunchilikda yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, buyurtmachi ishlarni qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, pudratchidan sifati lozim darajada bo'limgan ishlar qiyomatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar ishlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati lozim darajada bo'limgan ishlar uchun jarima pudratchidan aktseptsiz tartibda undirib olinadi.
7.3.«Buyurtmachi» «pudratchi» tomonidan bajarilgan ishlar uchun to'lov schyoti (xisob faktura) takdim kilingandan so'ng moliyalashtirish shartnomada belgilangan vaqtda amalga oshirilmasa kechiktirilgan kun uchun to'lov schyoti (xisob faktura) summasining 0,4 % miqdorida, biroq to'lov schyoti (xisob faktura) summasining 50% idan ortiq bo'limgan miqdorda penya to'laydi, bunda Buyurtmachiga bog'liq bo'limgan holatlar bundan mustasno.

8.Korrupsiyaga qarshi kurashish shartlari.

- 8.1 Taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va'da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya'ni taraflardan biri o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergen shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilihiga kafolat beradi.
8.2 Agar shartnoma bo'yicha bir taraf boshqa tarafning axloqqa to'g'ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid keladigan hatti-harakatlariga, shu jumladan, korruptsiyaga oid huquqbazarliklar sodir etishga majburlashdan iborat bo'lgan faktlarga duch kelsa, bu haqda quyidagi aloqa kanallaridan biri orqali xabardor qilish kerak: "1008" ishonch telefoni, telegram-kanali "@anticorbot" orqali, yoki hududiy prokuratura organlariga bildirish lozim.

9.Fors-major holatlari.

- 9.1 Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'limgan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'limgan holatlar (engib bo'lmas kuch) oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki yetarli darajada bajarmaganlik uchun taraflardan birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar emasdir. Bunday holatlar jumlasiga epidemiyalar, tabiiy ofatlar, harbiy harakatlarni kiradi.
9.2 Vakolatli organ tomonidan berilgan guvohnoma yengib bo'lmas kuch mavjudligi va amal qilishining davomiyligini tasdiqlash uchun yetarli hujjatdir.
9.3 O'z majburiyatlarini bajara olmayotgan taraf yengib bo'lmas kuchning mavjudligi va uning shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarishiga ta'siri haqida ikkinchi tarafga xabarnoma berishi lozim.

Agar yengib bo'lmas kuch holatlari uzliksiz 15 kun davomida amal qilib tursa va yaqin muddat ichida bekor qilinishi ehtimoli bo'lmasa, mazkur shartnoma taraflardan birining tashabbusi bilan ikkinchi tarafga yozma bildirishnomasi yuborish yo'li bilan bekor qilinishi mumkin.

10. Kelishmovchiliklarni hal qilish tartibi.

10.1 Ushbu shartnomani tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish bilan bog'liq, tomonlar o'rtasida kelib chiqadigan, shuningdek, yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi nizolar taraflarning o'zaro kelishuviga yoxud qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sud orqali hal etiladi.

11. Shartnomaning amal qilish muddati.

11.1. 2014 yil 1 yanvardan amalg'a kiritilgan O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 122-moddasi hamda O'zR Moliya Vazirligiining 2016 yil 22 noyabrdagi 88-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosi Qoidalari" (Adliya vazirligida 2016 yil 22 dekabrda 2850-son bilan ro'yxatdan o'tkazildi)ga asosan shartnomaga tegishli tartibda g'aznachilik bo'limi ro'yxatidan o'tkazilgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi xamda 31.12.2022 yilgacha amalda buladi.

11.2. Shartnomaga ikki nusxada tuzilgan bulib xar biri bir xil kuchga ega xisoblanadi va taraflarga bir nusxadan saklanadi.

12. Tomonlarning yuridik manzillari va bank rekvizitlari:

"Pudratchi"

"Akbar Shaxzod Qurilish" MChJ

(ijrochining nomi)

Манзил: Manzil: Buxoro viloyat Shofirkon tumani,

Zarchabek MFY, Zarchabek ko'chasi МФЙ,

tel/faks. 99-707-13-00, 91-922-52-45

x\r 20208 000 600 234 563 001

Bank nomi: Shofirkon tuman Xalqbanki

MFO 00670 STIR: 302642703


OKONX: 41201

Rahbar: I.I.Rashidov

(F.I.Sh.)

imzo

M.O'



"Buyurtmachi"

Shofirkon TTB

(byudjet mablaglarini oluvchi nomi)

Манзили: Manzili: Shofirkon tumani Navruz ko'chasi

117-uy ,Tel./faks: _____

sh/hv: 1000 2286 0062 5870 7310 1054 003

OKONX: 91511 STIR: 201113399

G'aznachilik bo'linmasi nomi: Shofirkon tuman
g'aznachilik bulinmasi

YaGX: 23402000300100001010

Bank nomi: Markaziy bankning Toshkent shahar
Bosh boshqarmasi Hisob-kitob-kassa markazi (HKKM)
MFO 00014

G'aznachilik bulinmasi STIR: 201122919

Rahbar: S.Xo'jamqulov

(F.I.Sh.)

M.O'



YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO⁴G⁴RISIDA HUQUQIY

XULOSA

OG8243631642

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: Shofirkon tuman TTB ga qarashli Jilvon OSHP binosini joriy ta'mirlash
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Shofirkon tuman tibbiyot birlashmasi tomonidan 24.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga
muvofiq.



A.S.NUSRATOV

24.11.2022

Shofirkon tumani
yuridik markazi
bosh yuristkonsulti:

O'zbekiston Respublikasi
sog'likni saqlash vazirligi
Buxoro viloyat
Shofirkon tuman tibbiyat
birlashmasi



Ministry of Public Health of the
Republic of Uzbekistan Bukhara
Regional Public Health department
Shafirkon regional medical
establishment

Shofirkon shahri, Navro'z ko'chasi, 117-uy Tel / Faks: (8-365) 502-33-03 Shafirkon city, Navro'z street 117,
Tel / Faks: (8-365) 502-33-03 e-mail: bxr.ssb.shofirkon.ttb@minzdrav.uz
KTUT 02021710 STIR 201113399 MFO 00014 H/R 23402000300100001010

2022 yil "28. noyabr"

№ 02/1834

Шофиркон туман тумани бўйича
Газначилик бўлинмаси
бошлиғи Д.Жабборовга

Сизга шуни ёзиб маълум қиласизки, куз-қиши мавсумига тайёргарлик кўриш максадида Шофиркон туман Тибиёт бирлашмасига қарашли Жилвон ОШП биносини жорий таъмирлаш ва ободонлаштириш мақсадида “Акбар Шахзод қурилиш” МЧЖ ўртасидаги 24 ноябр 2022 йилдаги №22/24 сонли 52000000 суммадаги шартномани Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигидан 21.12.2010 йилда 2169 рақам билан рўйхатдан ўтган Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг “Бюджет ташкилотларининг бухгалтерия хисоби тўғрисида”ги йўрикномани тасдиқлаш ҳақидаги 17.12.2010 йилдаги 105 сонли буйругининг 81 банди З хатбошига асосан шартномани бинони жорий таъмирлаш харажат моддасидан рўйхатдан ўтказишингизни сўраймиз ва барча жавобгарликни ўз зиммамга оламан.

Шофиркон туман тиббиёт
Бирлашмаси бош ҳакими :

Хужамкулов.С.Р